Shariat izdoshlarining fikrlari quyidagicha sharhlanadi: bola ona qornida 4 oylik bo‘lganida, Ollox unga 4000 yil oldin o‘zi tomonidan yaratilgan ruhni bag‘ishlash uchun farishta yuboradi, bola 4 oydan keyin jonlanadi va insondek yashashga tayyorlanadi.

Nasafiy inson ruhining turli sifatlarini uning joylashuvi bilan belgilaydi. Masalan, bir holatdan ikkinchi holatga o‘tish qobiliyati, bu yurak; o‘zi tirik va tanani tiriltiradigan narsa, bu ruh; mohiyatiga ko‘ra biluvchi va boshqalarga bildiruvchi, bu aql; yagona, chin va bo‘linmas, bu ilohiy ruh; osmondan va farishtalar zotidan bo‘lgan, bu farishta ruhi; mavhum, uzluksiz va sof, bu osmon ruhi.

Ruhning turlicha nomlarini sanab, Nasafiy mohiyatiga ko‘ra uni yakka deb hisoblaydi. U tasdiqlaydiki, «bitta buyumni yuzlab nomlar bilan atash mumkin, biroq buning hech qanday yomon tomoni yo‘q». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.107] Har bir inson sifati – vijdotsizlikdan vijdonlilikka qadar bitta: rahmoniy va shaytoniy ruhga ega. Uning fikricha, bitta ruh oliy va tuban sifatlarga ega va ularning namoyon bo‘lishi inson o‘zini qanday ko‘rsatishiga bog‘liq. Shunday qilib, Aziziddin Nasafiy ruhni anglash masalasida bir tomondan, shariat vakillarining qarashlarini qo‘llab-quvvatlaydi, boshqa tomondan ruhni tasniflash va uning sifatlarini ochish jihatidan faylasuflar nuqtayi nazariga ergashadi.

---

Makedoniyalik Aleksandr Misrni zabt etganidan so'ng, yunon falsafiy maktablari Aleksandriyaga ko'chadi. Keyinchalik ular zaminida yangi falsafiy oqim – neoplatonizm shakllandi. Neoplatonizm, eng avvalo, yunon, suriya, fors mutafakkirlarining ta'limotlari va yahudiylik, zardushtiylik, nasroniylikning ba'zi diniy elementlari o'zaro ta'siri natijasida vujudga keldi. Bu o'zaro ta'sir neoplatonizm nomi ostida yangi yo'nalish vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu yo'nalish asoschilaridan biri – Plotin bu oqimning umumiy xususiyatlarini ko'rsatib, uning asosiga emanatsiya ta'limotini qo'yadi. Keyinchalik bu yo'nalish musulmon Sharqiga kirib keladi. Neoplatonizm ta'limotida aqliy olam mavjudligi tan olinishi uning musulmon o'lkalari tomonidan qabul qilinishiga sabab bo'ldi, buni ko'plab tadqiqotchilar o'z ishlarida e'tirof etishgan. Musulmon sharqining o'rta asr falsafiy ta'limotlarida ayniqsa peripatetizm, kalom va so'fiylik vakillari Forobiy, Sanoiy, Attor, Ibn Sino, G'azzoliy, Nasiriddin Tusiy, Jaloliddin Rumiy asarlarida bu ta'limot ruhi ustunlik qilgan.

Aziziddin Nasafiy musulmon Sharqining o'rta asr maktabi vakili sifatida uning ta'sirini o'zida his qilgan. Bu narsa ayniqsa ruh va tana masalalari tadqiqotida o'zini ko'rsatgan. Aziziddin Nasafiy bularni ratsionalizm vakillari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi, asosan sharq peripatetizmi yorqin vakillari bo'lgan Forobiy va Ibn Sino ta'limotiga tayanadi.

Ta'kidlash lozimki, Nasafiy ruh va jon bilan bog'liq masalalarni ratsionalizm pozitsiyasi - Plotin, Forobiy va Ibn Sinoga ko'ra tadqiq qilib, jon atamasidan ko'p foydalanadi. Bu yerda shunisi diqqatga sazovorki, ko'plab mutafakkirlarning asarlarida jon falsafiy tushuncha sifatida umumiy va qarama-qarshi ma'nolarga ega. Misol uchun, peripatetizm maktabining yetakchi vakillaridan Forobiy Aristotel kabi jonni shunday tavsiflaydi: «jon tabiiy tananing takomili bo'lib, u Aristotel yozganidek, tananing tasviri sanaladi». Biroq, shu joyda u Aristotel fikriga qarshi bo'lib qoladi. Bir tomondan, u jonni tananing surati deb, boshqa tomondan, tananing asosi va ruhiyatning mohiyati deb izohlaydi. O'z mulohazalarini to'rt bandeda asoslaydi:

1. Jon aql (bilish mumkin bo'lgan) ni o'z ichiga oladi, aql esa mavhum (oq va qora kabi) xarakterga ega. Modomiki, aql tanada shakllanar ekan, u tana kabi shaklga, makonda o'ringa va sifat hossalari ega bo'lishi kerak.
2. Jon onga ega. Hamonki, jon tanada ekan, tanani bilmasdan u o'zini anglay olmaydi. Demak, ruh va tana o'rtasida uzviylik bor va doim shunday bo'lib qoladi.
3. Isbotning asosliligi shu bilan belgilanadiki, aql keksalik boshlanishi bilan kuchayadi. Bu holatda jon tana bilan birgalikda o'ladi.
4. Qat'iy dalil shuki, keksalikda aql takomillashadi. Bunday holatda jonning ifodasi va moddiy timsoli bo'lgan tananing halokati bilan, bu tanaga tegishli bo'lgan jon ham yo'qlikka yuz tutadi. [Yaroshevskiy M.G. Aristotelning jon haqidagi ta'limoti va antik determinizm.]

Atoqli mutafakkir Nosir Xisrav, ratsionalistlar fikriga tayanib, jonning mohiyatini o'zining «Jome'-ul-xikmatayn» asarida (Donolik majmuasi) ko'rib

---

chiqib, jon nima degan savolga shunday javob beradi: «Jon bir jinsli, tabiatiga ko'ra ruhiy va jonli substansiya, bilish quvvatiga ega, tabiiy harakatlanuvchi va faol aqlning tasviri sifatida namoyon bo'ladi». [Nosir Xisrav. Kulliyot. 1995. b.89]

Ko'rib turganimizdek, Nosir Xisrav jonni boshqa mutafakkirlardan farqli ravishda, o'ziga hos tarzda ifodalaydi.

Zamonaviy arab olimi Xan al Foxuriy o'zining «Musulmon olamida falsafa tarixi» asarida Ibn Sinoning jonni bilish va ta'riflashdagi o'rni haqida yozadi: «Musulmon faylasuflari shuningdek bu masalani ko'rib chiqishgan. Kasto ibn Lukkoning «Tana va ruh farqi haqida asar» nomli kitobi bo'lib, al-Kindiy va Forobiy ham bu masalani yechishga harakat qilishgan, biroq ulardan hech biri Ibn Sino kabi mulohaza yurita olishmagan». [Xan al Foxuriy. b.464]

Ibn Sinoning jonni bilishga oid ilmiy qarashlari shuni tasdiqlaydiki, u ushbu muammoni metafizika va fiziologiya nuqtayi nazaridan ko'rib chiqqan ilk va yagona mutafakkir bo'lgan. Buni uning ilmiy asarlari ko'plab tadqiqotchilari, shu jumladan Xan al Foxuriy ham tasdiqlagan.

Aziziddin Nasafiy jon va uning hususiyatlari haqida aytilgan yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yozadi: «Inson joni – iroda va aql bilan bir xil tuzilishda bo'lmagan, bir jinsli, tananing haqiqiy va mukammal substansiyasi sanaladi va bu inson jonining hech narsaga ehtiyoji yo'q, biroq tananing ehtiyojlari bor. Inson joni harakat shakllanganiga qadar mavjud bo'lmagan va inson tanasida vujudga keldi. Shakl muvozanatga kelganidan so'ng, inson joni paydo bo'ldi». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.85]

Bu yerda Aziziddin Nasafiy muvozanat tushunchasidan shakl qismlari, ya'ni shakl tashkil topgan elementlar mutanosibli ma'nosida foydalanadi.

Ta'kidlash lozimki, Nasafiy jon tushunchasi bilan birgalikda ruh tushunchasidan ham foydalanadi. Masalani bunday qo'yish faqat Nasafiyga hos, boshqa tadqiqotchilarda deyarli kuzatilmaydi. U rux tushunchasidan o'simlik, hayvon va insonga nisbatan to'lig'icha foydalanadi, jon tushunchasini esa faqat insonga nisbatan ishlatadi. «Inson tabiiy va hayvonot ruxiga ega, shuningdek jon ruxiga ham, shu sababli inson ruxiga ega bo'lgan mahluqot vakili ham sanaladi. Inson ruhi farishta ruhi bilan shu sababdan zidki, u maylda namoyon bo'ladi, samoviy mohiyatga yaqinlashadi va unda samoviy in'ikos paydo bo'ladi. Ushbu jon ruhi maylda osmon mohiyatiga yaqin turadi, osmoniy jismlar issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik, og'irlik va yengillik hususiyatlariga ega emas, doimo muvozanat holatida bo'lishadi». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.76]

Ko'rib turganimizdek, Aziziddin Nasafiy inson ruhini o'simlik va hayvon ruhi bilan bir qatorga qo'yadi, biroq ularni ko'rib chiqishda uning faqat insonga hosligini, osmon va osmon jismlari bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Nasafiy jon va ruh tushunchalarining ma'nodoshligini shubha ostiga oladi, rux tushunchasini u metafizik jihatdan, jon tushunchasini esa fiziologik nuqtayi nazardan ko'rib chiqadi.

Shu bilan birgalikda, Aziziddin Nasafiy inson katta olamni aks ettiradigan kichik olamni o'zida aks ettirgani sababli ruh taraqqiyoti va olamni osmon bilan birgalikda bilishni tadqiq qiladi. Emanatsiya nazariyasiga ko'ra, to'qqizta osmon

---

jismi o'n bitta aql tomonidan boshqariladi. Inson qanchalik mehnat qilib, intilsa uning ruhi shunchalik poklanib boraveradi, u ko'proq osmonga yaqinlashadi. Mutafakkir yozadi: «Jon mashaqqat cheksa, u mukammallashadi, uyg'un bo'ladi, unda ko'proq shaffoflik va refleksiya hosil bo'ladi, koinotni aks ettirish qobiliyati oshib boradi». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.76]

Oldin eslatganimizdek, Nasafiy tana masalasini ikki jihatdan – ilm tarafdorlari va shariat tarafdorlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi. Nasafiy jonni tanaga mansub deb hisoblasa ham, uning fikricha, jonning hususiyatlari tananing dastlabki elementlaridan kelib chiqqan. U ta'kidlaydiki, jon tana tuzilgunga qadar mavjud bo'lmaydi, biroq to'rt element birlashishida ruhning maqomi va darajasi namoyon bo'la boshlaydi, u ruhni barqarorlikka yaqinligiga ko'ra tasniflaydi. Aziziddin Nasafiy nuqtayi nazari jihatidan, ruhning hususiyatlari uning mijoziga bog'liq. Bu kuchlarning hossalarini Ibn Sino quyidagicha tavsiflaydi: o'ziga tortuvchi, moslashuvchi, hazm qiluvchi, o'zlashtiruvchi va himoya qiluvchi kuch. Nasafiy ham shunday ta'riflaydi: «Olloh me'dada to'rt farishtani yaratdi, birinchi farishta - o'ziga tortuvchi, ikkinchi farishta – o'zlashtiruvchi, uchinchi farishta – hazm qiluvchi, to'rtinchi farishta – himoya qiluvchi. O'ziga tortish amali shu bilan belgilanadiki, me'da o'ziga tortadigan narsani shu farishta yordamida tortadi, o'zlashtirish amali shunda namoyon bo'ladiki, me'da o'zida saqlaydigan narsani shu farishta yordamida saqlaydi, hazm qilish amalining mohiyati shundaki, me'da hazm qiladigan narsani shu farishta yordamida bajaradi, himoya qiluvchi amalning ma'nosi shundaki, me'da o'zidan chiqaradigan narsani shu farishta yordamida chiqarib yuboradi. Bu farishtalar jigar, yurak, burun va tananing har bir qismida o'z ishini bajarishda lozim va muhim». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.77]

«Farishta» tushunchasi bu vaqtda boshqa faylasuflar tadqiqotlarida uchramaydi, faqat Aziziddin Nasafiy unga doimiy amallarni bajaruvchi muayyan mexanizm sifatida nisbat beradi, ularning tinch holati ruhning tinch holati deb hisoblaydi.

Nasafiy aytilgan kuchlarning harakat jarayoniga alohida e'tibor qaratadi. Bu kuchlar ishini sinchkovlik bilan tahlil qilib, o'z qarashini asoslash uchun, bu masalaning fiziologik tomonini shunday sharhlaydi: «Taom me'daga tushgandan so'ng hazm bo'ladi, shunda bu taomning qaymog'i jigarga tushadi. Jigarga tushgandan so'ng yana bir bor hazm bo'lib, o'simlik ruxiga aylanadi, qolgani quyqa, qon, safro va qora safroga aylanadi. Keyin o'simlik ruxi bu to'rt elementdan har birini kerakli joyga yo'naltiradi, taqsimlovchi vazifani o'simlik ruhi bajaradi, jigar yordamida u butun tanaga tarqaladi. O'simlik ruhining quyqasi yurakka kelib tushadi, u yerda yana hazm bo'lib, bundan hayvon ruhi hosil bo'ladi, qolgani uning yordamida butun tanaga taqsimlanadi. Tanadagi hayot taqsimlovchisi hayvon ruhi bo'lib u qon tomirlari vositasida butun tanaga yoyiladi. Shundan keyin hayvon ruhidan qolgan quyqalarni dimog' o'ziga tortadi va u yerda yana qayta ishlanib, qalb ruhiga aylanadi, asab tolalari orqali tanaga taqsimlanadi». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.88]

Shunday qilib, Nasafiy faqat insonga hos bo'lgan ma'naviy ruhni ko'rib chiqib, uni ikki guruhga bo'ladi:

- 1) Ongli ruh

## 2) Harakatlanuvchi ruh

Nasafiy Ibn Sino kabi ongli ruhning tushunish jarayonini uning vazifalariga ko'ra, ikki guruhga bo'ladi – ichki va tashqi sezgilar, ularning har birini beshta kichik tur ko'rinishida ifodalaydi.

Aziziddin Nasafiyga ko'ra, predmetga tegish natijasida hosil bo'ladigan tashqi sezgilarning beshta turiga eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish, sezish kiradi. Beshta ichki sezgi esa beshta tashqi sezgining natijasi bo'lib, umumlashtirish, tasavvur, qo'rquv, xotira va mavhumlashtirishdan iborat.

Beshta tashqi sezgining vazifasi va faoliyati alohida sharhga muxtoj emas. Shuning uchun, tadqiqotchi unga ko'p diqqat ajratmaydi, biroq beshta ichki sezgining ish jarayonini psixofiziologiya nuqtayi nazaridan quyidagi shaklda tahlil qiladi: sezgilar manbaining umumlashmasi bo'lib, sezgilarni umumlashtirish predmetning hususiyatlariga yetish imkonini beradi. Misol uchun, ko'z suvning rangini, til suvning ta'mini biladi, ovoz eshitish orqali, suvning hidi hidlash orqali, namligi tegish orqali bilinadi.

Umumlashgan sezgilarning butun jarayoni uni idrok qiladigan va saqlaydigan tasavvur orqali qabul qilinadi. Qo'rquv do'stda do'stlikni, dushmanda dushmanlikni ko'radi. Xotira qo'rquvdan do'stlik va dushmanlik tushunchalarini qabul qilib oladi. Mavxumlashtirish idrok faoliyatini qamrab olib, tasavvurning oxirgi darajasi hisoblanadi. Bundan tashqari, mavxumlashtirish idrok qilinganlarni taqsimlaydi va sinflashtiradi. Masalan, ikki boshli insonni tasavvur qilganda, boshni tanadan alohida yoki boshsiz tanani ko'z oldiga keltiradi. Bu kuch tafakkurni ishlashga majbur qiladi. Bu kuchdan qo'rquv foydalansa, u tasavvurga aylanadi.

Aziziddin Nasafiy hulosada ushbu davr tasnifiga ko'ra, ichki sezgilar tasavvur, qo'rquv va hotiradan iborat deb hisoblaydi: «Tabiblar aytishicha, umumiy sezgilar va tasavvur bir butunlikni tashkil qiladi va dimog'ning boshlanishida joylashgan, qo'rquv va mavhumlashtirish birgalikda dimog'ning o'rtasidan joy olgan, xotira va tasavvur ham birga bo'lib, dimog'ning oxiridan o'rin olgan». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.126]

Harakatlanuvchi ruh, Nasafiy fikricha, sababiy va faol kuchga ega. Sababiy kuch do'st yoki dushman obrazini idrok qilishda yuzaga keladi va faol kuchni qo'zg'atadi. Faol kuch tana qismlarini harakatlantiruvchi kuch bo'lib, tana qismlari harakati aynan unga bo'ysunadi. Shunday qilib, faol kuch sababiy kuchga bog'liq bo'lib, uning buyruqlarini ikki instinktga ko'ra bajaradi: manfaat va lazzat instinktlari. Bu kuch lazzat instinkti bilan bevosita aloqador bo'lib, uni imkoniy kuch deb ham nomlash mumkin. Ikkinchi instinkt o'zida zararni bartaraf qilish va dushman ustidan g'olib kelishni namoyon qiladi, u bilan bog'liq kuchni isyonkor kuch deyish mumkin.

Inson mohiyati haqidagi masala falsafa ilmida alohida o'rin egallaydi. Uning yechimi doimo u yoki bu mutafakkirning dunyoqarashiga va turli falsafiy maktablarning metodologik pozitsiyasiga bog'liq bo'lgan. Bunda turli yo'nalish va ta'limotlarning o'ziga hosligi tadqiqotchilarning tug'ma va g'oyaviy mansubligi, ularning moddiy, ma'naviy va ruhiy holati bilan belgilanadi. Qadimgi yunon

---

falsafasida Protagor inson mohiyatini shunday belgilagan: «Inson – barcha mavjud va mavjud bo‘lmagan narsalarning mezoni». Suqrot ham insonni o‘z-o‘zini anglashga chorlagan.

Platonning falsafiy tizimida inson mohiyati va mavjudligi tana va ruh dualizmidagi, ularning qarama-qarshiligida namoyon bo‘ladi. Aristotel ta’limotiga ko‘ra, inson – aql va ongga ega bo‘lgan siyosiy hayvon. Inson mohiyatida oliylik haqidagi fikrlar Aristotelida shunday ifodalanadi: avvaliga inson tabiatning eng yuksak darajasi bo‘lib, keyinchalik ruh, obraz va birlamchi materiyaning egasi sifatida unga qarshi chiqadi. Aziziddin Nasafiy musulmon Sharqining o‘rta asr faylasufi sifatida, insonni ilohiy olamning elchisi sifatida tasvirlaydi. Uning nuqtayi nazarida inson – tana va ruh birligi, olam va yaratuvchilikning na’munasi, olam mavjudligini qabul qiluvchi, u katta olamdagi mavjud barcha narsalarni o‘z ichiga olgan kichik olamning bir bo‘lagi, uni katta va kichik olamdagi ifodachisi sanaladi. Nasafiyga ko‘ra, kichik olamdagi inson ikki olamdan kelib chiqadi: mulk olami (moddiy dunyo) va malakut olami (ilohiy olam).

Moddiy olamga u quyidagi tashqi xususiyatlarni hos deb biladi: timsol, tana va makon. Ilohiy olam inson mohiyatini aks ettiradi va ma’no, jon va makon egasi kabi sifatlarni o‘z ichiga oladi. Tub sifatlarga quyidagi darajalar hos: tabiat, qo‘rquv, aql va Olloh nuri.

Birinchi daraja bo‘lgan tabiatda uch narsa namoyon bo‘ladi: a) tartiblilik, obodlik, itoatkorlik. b) ahloqsizlik, buzg‘unchilik, bo‘ysunmaslik. s) manmanlik va hudbinlik. Payg‘ambarlar makon egalarini uch xil nom bilan atashadi:

- Farishtalar barpo etishadi, obod qilishadi va bo‘ysunishadi.
- Jinlar vayron qilishadi, buzishadi va itoat qilishmaydi.
- Farishta va jinlar bir hil mohiyat sanaladi. [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.383]

Aziziddin Nasafiy oddiy insonlarga xayrixohlik bilan yondashadi, ularga farishtalar xususiyatlari, shuningdek jinlar sifatlari bilan nisbat beradi: Oddiy insonlarda jinlar ko‘p emas, ularda ham farishta, ham jin mavjud, jinlar ko‘proq olimlar, shayxlar va hukmdorlarda bo‘ladi. Shuning uchun ularda ko‘pincha hudbinlik ustun keladi.

Inson ruhi uning mohiyatini aks ettiradigan rivojlanish, oziqlanish, ko‘payish, harakatlanish, bilish, so‘zlash, ahloq, sezgi, e’tiqod qilish va notiqlik amallariga egalik qiladi.

Aziziddin Nasafiy nuqtayi nazariga ko‘ra, inson mohiyati bilim rivoji va bilish darajasiga bog‘liq ravishda o‘zgaruvchan. Bundan kelib chiqadiki, inson mohiyatining o‘zgarishi uning bilim darajasi bilan bog‘liq. U butun borliqning mohiyatini insonga yaqinlashishda deb biladi, borliq mohiyati taraqqiyotining asosiy maqsadi – bu inson.

Insonning imtiyozi va mohiyati, mutafakkir fikricha, unga hos bo‘lgan aql bilan belgilanadi, chunki aynan aqlning mavjudligi insonni farishtalar va hayvonlar olamidan farqlab turadi, insonning boshqa sifatlari, jumladan nutq va faoliyat ham aqlga bog‘liq. Aynan aql va nutq yordamida inson o‘z harakatlarini tartibga keltirishi mumkin. Hattoki, til aql faolligining natijasi sanaladi. Uning fikricha,

---

kitoblar va nutq yordamida aql noaniqliklarni ayon qiladi va fan aql kuchi sanaladi: «inson aqli tashqaridan o‘zini ikki tomonlama namoyon qiladi: nutq va faoliyat orqali. Til fan hodisasi, qo‘l esa faoliyat ifodasi sanaladi. Nazariy aql va mulohazali fikrlar tilda namoyon bo‘ladi, amaliy donolik va alohida san’atlar faoliyat mahsuli bo‘ladi. Nutq aql bayonini hozir bo‘lganlarga, kitob esa hozir bo‘lmaganlarga ham yetkazadi. Fan va inson aqlining kuchi shu yo‘sinda namoyon bo‘ladi». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.386]

Nasafiy narsalarning mohiyatini hisobga olib, sezgi va iroda kuchini qiyoslab, iroda hayvonlarga, fan va aql insonlarga hos deb hisoblaydi. Qismlar harakati va ularning birlashishi ixtiyorsiz, erkin bo‘lmagan va nooqilonadir: «Jismlar rivojining barcha darajalarida sezgi va iroda kuchi hayvonlarga, aql va bilim esa insonlarga hos.

Yulduzlar, osmon, farishtalar va dastlabki elementlar aql va bilimga ega emas va doimo harakatda bo‘ladi, har birining o‘z vazifasi bor, biroq ular o‘z vazifasini bajarmasligi va o‘ziniki bo‘lmagan boshqa vazifani bajarishi mumkin emas. Shunday ekan, bu harakatlar ilmiy, erkin, oqilona emas va ularning hoxishiga bog‘liq bo‘lmaydi, ya’ni sezgi, iroda, aql va fan daraxt mevalariga o‘xshaydi, daraxtning keyingi rivojida sezgi, iroda va erkinlik fan va aql bo‘la olmaydi». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.305]

Shunga qaramasdan, Nasafiy inson mohiyatini aqlda ko‘rgan, biroq uning taraqqiyotini insonning intilishi bilan bog‘lagan. Aqlning rivojlanish bosqichlarini quyidagi shaklda belgilaydi: «inson payg‘ambarlarni tan olib, ularga ergashsa, iymon darajasiga ko‘tariladi va mo‘min bo‘ladi. Payg‘ambarlarga yanada sodiq bo‘lib, Olloxga imon keltirsa taqvodor, tarkidunyochi (obid) bo‘ladi. Ko‘plab ibodatlardan so‘ng olam ne‘matlaridan ya’ni boylik, mansab, hirs kabilardan voz kechsa, zohid bo‘ladi. Zoxidlik darajasida barcha narsalarning mohiyatini anglaydi, farishtalar olami (malakut) va oliy qudrat olamida (jabarut) unga ma‘lum bo‘lmagan hech narsa qolmaydi, o‘zi va Rabbini anglaydi, ma‘rifatli (orif) nomini oladi. Bu eng oliy maqom, har bir yo‘lovchi (solik) bu maqomgacha yeta olmaydi. Shundan keyin Ollox unga o‘z nazarini tashlaydi va u bashoratgo‘yga (valiy) aylanadi. Ollox unga nazar solib, vahiy yuborsa, u payg‘ambar maqomiga erishadi. Ollox bunga qo‘shimcha ravishda unga kitob ham tushirsa, Olloxning elchisi (rasul) deb nomlanadi». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.272]

Iste‘dod ham insonning muhim sifatlaridan biri bo‘lib, Nasafiy insonlar o‘rtasidagi farqni ularning iste‘dodiga bog‘liqlikda ko‘radi va eng yaxshi iste‘dodni bilimda deb hisoblaydi, bilimlarning turi ko‘pligi sababli, kishilarni bilimi darajasiga bog‘liqlikda farqlaydi, inson mohiyatini to‘rt hususiyatda ko‘radi: ezgu amal, ezgu hol, ezgu ahloq va ma‘rifat. «Olamdagi barcha jonzotlar nimagaki ega bo‘lsa, iste‘dodi tufayli erishadi. Har bir inson nimagaki erishsa, iste‘dodi natijasida erishadi. Shubhasiz, insonlarning iste‘dodi turlicha bo‘ladi, ular shunga ko‘ra ham farqlanadi. Inson mohiyati to‘rt sifatda o‘z ifodasini topadi: ezgu amal, ezgu hol, ezgu ahloq va ma‘rifat. To‘rt sifatga ega har kimni inson deb, bularga ega bo‘lmaganni esa hayvon deb nomlash mumkin». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.272]

---

Nasafiyga ko‘ra, nutq, ahloq va bilim sababli eng oliy mavjudot sanaladi va hayvonlardan farqlanadi.

Bularning hammasidan kelib chiqib, u insonni Ollloh bilan taqqoslaydi va unda ilohiy sifatlarni ko‘radi: «Kichik olamda aql Olllohning noibi, ruhiy jon uning saltanati, hayvon ruhi uning taxti, yetti ichki a‘zo - yetti osmon, yetti tashqi a‘zo – yetti iqlim.

Ollloh noibi qandaydir ishni bajarmoqchi va o‘zini namoyon qilmoqchi bo‘lsa, avvaliga uning obrazi aqlda ko‘rinadi, aqldan ruhiy jonga o‘tadi, ruhiy jondan hayvon ruhiga, undan esa qon tomirlari orqali, yetti osmonga o‘xshagan yetti ichki a‘zoga yetib, shundan so‘ng tashqariga chiqadi. Agar yuzaga qo‘l orqali chiqsa, unda qo‘l dastlab aqlni uchratadi. Tananing to‘rt asosiy qismi suvoriy vazifasini bajarib, ularni tananing tegishli qismidan chiqishini ta‘minlaydi.

Olllohning noibi nimadir yozishni yoki bajarishni istasa, dastlab buni aqlda bajaradi, so‘ngra buning tashqi ifodasi til yoki qo‘l orqali yuzaga chiqadi». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.272] Insonning tabiiy sifatlari haqida yozadi: «tashqi ko‘rinish hech qanday imtiyozga ega emas, mohiyat esa ega. Ism ustunlikka ega emas, sifatlar esa ega. Nasab afzallikka ega emas, hunar esa ega. Ko‘ppak tashqi ko‘rinishi uchun harom va jirkanch bo‘lmaydi, yirtqich va yovvoyi sifatlari uchun qabih sanaladi. Agar bu sifatlar insonda bo‘lsa, unda inson undan ham yomonroq bo‘lgan to‘ng‘iz holiga tushadi. Iblis ham shu shaklda bo‘lgani uchun murdor va qabih bo‘lmaydi, itoatsiz, fitnachi bo‘lgani va yomon amallari uchun razil sanaladi. Va bu sifatlar insonda bo‘lsa, u ham Iblis bo‘ladi. U jannatdan tashqi ko‘rinishi uchun emas, balki kibr, itoatsizlik va hasad sababli quvg‘in qilingan. Maloiklar ham tashqi ko‘rinishi uchun ilohiy, olijanob va suyukli bo‘lmay, itoatkorligi va taqvodorligi sababli shunday sanaladi. Agar bu sifatlar insonda bo‘lsa, u ham maloikka aylanadi». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.190]

Ushbu misollarda Aziziddin Nasafiy mohiyat va sifatlarning o‘zgaruvchanligini insonlar va hayvonlar timsolida ko‘rsatadi va quyida qiyosni keltiradi: «Bo‘rining mohiyati sifat va mazmunga ega, shuningdek qo‘ylar ham sifat va mazmunga ega, bu holatda sifatlar hech qachon o‘zgarmaydi. Qanday tug‘ilsa, shunday o‘ladi. Biroq, ruh va tananing sifatlari o‘zgaradi, buni misolda aniqlash mumkin. Bilgilki, jarohatlash bo‘rining sifati va bu sifat hech qachon o‘zgarmaydi, ya‘ni u yashar ekan, shu hususiyatlar bilan qoladi. Bo‘rida boshqa sifatlar, qo‘ylarda esa boshqa. Masalan, bo‘ri yirtqich bo‘lish bilan birgalikda yovvoyi hamdir, shuning uchun insonlardan qochadi. Qo‘ylar esa ularga hos bo‘lgan sifatlar birgalikda yovvoyi sanalmaydi va shu sababli insonlardan qochmaydi. Har bir ruh odatlanish hususiyatiga ega. Qanday yashashsa, shunga moslashishadi. Ruh yaxshi va yomon odatlarga ko‘nikadi. Agar bo‘ri yovvoyi bo‘lmaslikni, qo‘y esa yovvoyi bo‘lishni istasa, bu qiyin emas. Tananing sifati bu - tashqi ko‘rinish.

Bo‘ri va qo‘y misolida bilganingiz barcha hayvonlarga hos. Shu kabi insonga hos bo‘lgan sifatlar hech qachon o‘zgarmaydi, biroq uning ruhiy va jismiy sifatlari o‘zgaradi». [A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.190]

---

## **XULOSA**

Shunday qilib, yuqorida keltirilganlardan quyidagicha hulosa qilish mumkin:

- 1) Aziziddin Nasafiy o'rta asrlarning boshqa mutafakkirlari kabi, inson tabiatini tana va ruh dualizmi sifatida tushunadi. Boshqacha aytganda, inson ikki olam o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sanaladi.
- 2) Mutafakkir fikricha, ruh tirik va tanani tiriltiruvchi bo'lib, u mohiyat, tana esa hodisa hisoblanadi.
- 3) Nasafiy bilish masalasini hal qilishda bir tomondan, shariat tarafdorlari nuqtayi nazarini qo'llaydi. Boshqa tomondan, ruh va uning hususiyatlari tasnifini tadqiq qilishda peripatetiklar tomonida bo'ladi.
- 4) Inson ruhi, Nasafiy nuqtayi nazarida, o'simlik va hayvon ruhi bilan qiyoslaganda birmuncha mukammal va rivojlangan deb olinadi. Inson ruhi o'simlik va hayvon xossalariga ega bo'lib, bundan tashqari o'zining anglash, aql, nutq kabi farq qiluvchi xususiyatlariga ega.
- 5) Inson borliq taraqqiyotining eng oliy bosqichi bo'lib, u o'zida butun mavjudotni aks ettiradi.
- 6) Inson mohiyati aql mavjudligida namoyon bo'ladi, rivojlanadi, bilimlar majmui bilan bog'liqlikda takomillashadi.
- 7) Iste'dod, nutq, mehnat va muloqot – bular inson mohiyatining asosiy kuchlari, ular vositasida inson aqlining mohiyati namoyon bo'ladi.
- 8) Inson mohiyati to'rt narsada o'z ifodasini topadi: ezgu amal, ezgu hol, ezgu hulq va ma'rifat. Nasafiy inson hayotining asosiy maqsadini bu sifatlarning tadrijiy rivojida ko'radi.

Va nihoyat, Nasafiy insonning tug'ma sifatlari, ayniqsa uning aqlidan kelib chiqib, uni Ollox bilan qiyoslaydi va unga ilohiy sifatlarni hos deb biladi.

## **BIBLIOGRAFIYA**

1. Abdukarim Beozoriy Sheroziy. Qur'on va tabiat. 2000. b.90
2. Ibn Sino. An-najot. Dushanbe. b.150
3. Shamolov A. Muxammad G'azzoliy ilohiyot falsafasi. b.220
4. A.Nasafiy. Kitob al-inson ul-komil. b.107
5. A.Nasafiy. Kashf ul-haqoyiq. b.76
6. Yaroshevskiy M.G. Aristotelning jon haqidagi ta'limoti va antik determinizm. 2005. b.230
7. Nosir Xisrav. Kulliyot. 1995. b.89
8. Krachkovskiy I.Yu. tarj. Qur'on. 1990. b.85
9. Xan al Foxuriy. 2002. b.464
10. Q.Nazarov. Falsafa qomusiy lug'ati. 2004. b.496